

**AKSIYADORLIK TIJORAT "ALOQABANK"  
BAYONNOMA**

2026-yil 13-mart

Toshkent shahri.

**Raislik qiluvchi:** AT "Aloqbank" Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari U.Qo'qonboyev

**Ma'ruzachilar:** U.Abulkosimov – Komplaens nazorat boshqarmasi bosh menejeri.  
O.Annaqulov – Yuridik xizmati etakchi yuriskonsulti

**Ishtirok etdilar:** AT "Aloqbank" IT Park va Amaliyot HKXKM xodimlari

**KUN TARTIBI:**

**"Banklarda korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish masalalari"**

(U.Qo'qonboyev, U.Abulkosimov, O.Annaqulov)

Yig'ilishni AT "Aloqbank" Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari U.Qo'qonboyev ochib berdi va quyidagilarni bayon qildi:

"Hurmatli hamkasblar! Tadbirkorlik subyektlari va aholining tijorat banklariga bo'lgan ishonchini yanada oshirish, ularning qonuniy faoliyat yuritishlari uchun to'siq bo'layotgan har bir omillarni birma-bir o'rganib chiqish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Bugungi kunda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirilishida har bir soha va tarmoq xodimlarining o'z ishiga nisbatan sitqidildan yondashuvi, o'zlariga yuklatilgan vazifalarni birinchi navbatda halollik va adolat mezonlariga tayangan holda bajarishlari hal qiluvchi o'rin tutadi, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Mazkur davra suhbatida ishtirokchilarning diqqat-e'tibori bank tizimida korrupsiya, ta'magirlik va poraxo'rlik kabi zararli illatlarga qarshi kurashishda o'zaro hamkorlik qilish masalalariga qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'z so'zlarini yakunlab keyingi ma'ruzachi Ulug'bek Abulkosimovga berdi.

U.Abulkosimov:

Assalomu alaykum hamkasblar! Etimologik jihatdan "korrupsiya" - lotincha "corruptio", ya'ni "buzish, sotib olish, pora evaziga og'dirish" degan ma'noni anglatadi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunida keltirilgan ta'rifga ko'ra, korrupsiya — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdir.

Iqtisodiyotning muhim bo'g'ini bo'lmish bank-moliya tizimidagi korrupsiya holatlariga qarshi kurashish, bunday salbiy holatlarning oldini olish, kelib chiqish sabablarini tahlil qilish, bu boradagi korrupsiogen omillarni bartaraf etish masalalari dolzarblik kasb etib, boshqa sohalarda korrupsiyaga qarshi kurashishning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy barqarorlik va xalq ishonchini ta'minlash uchun mustahkam va axloq normalariga amal qiluvchi bank tizimi muhim ahamiyatga ega. Biroq, moliya sektoridagi korrupsiya xalqning ishonchini yo'qotadi, iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qiladi va moliya bozorlarini beqarorlashtiradi. Bank faoliyatidagi korrupsiya turli shakllarda, jumladan, poraxo'rlik, pul yuvish, xarid jarayonidagi savdolari va manfaatlar to'qnashuvida namoyon bo'lishi mumkin.

Bu faoliyat nafaqat alohida institutlarga zarar yetkazadi, balki aholining butur moliya tizimiga ishonchini yo'qotadi. Bank faoliyatidagi korrupsiya keng ko'lamlil faoliyatni qamrab olishi mumkin.

AT "Aloqbank" da axloqiy xulq-atvorni targ'ib qilish va korrupsiyaning oldini olish borasidagi sa'y-harakatlarining asosi sifatida "Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati" qabul qilgan bo'lib, bu regulyator sifatida aniq xulq-atvor qoidalarini belgilash va mavjud qoidalarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Banklarning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining asosiy vazifalari quyidagilar:

- Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish printsiplari va qoidalarini joriy etish;
- bankning, shuningdek, ularning xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish va uning faoliyatiga jalb qilish xavf-xatarlarini kamaytirishga qaratilgan samarali mexanizmlar, tartib-taomillar, nazorat va boshqa choralarni yaratish;
- Bank xodimlari o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashishning yagona standartini, shu jumladan korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga toqatsizlikni shakllantirish;
- Bank faoliyatining barcha darajalarida korrupsiyaga qarshi kurashish printsiplarini strategik va operatsion boshqaruvga integratsiya qilish;
- Bank xodimlari, mijozlari, homiylari, aksiyadorlari, investorlari va boshqa shaxslar o'rtasida mazkur Siyosat tamoyillari to'g'risida umumiy tushuncha hosil qilish;
- bank boshqaruv organlariga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilgan jinoyatlar va chora-tadbirlar to'g'risida axborot berish;
- korrupsiyaga qarshi huquqbuzarlik uchun javobgarlik choralarni qo'llashdan iborat ekanligini ta'kidlab o'tdi hamda seminar ishtirokchilariga "Korrupsion huquqbuzarliklar" to'g'risida taqdimot va ijtimoiy roliklar ko'rsatish orqali o'z ma'ruzasini yakunlab, so'z navbatini Oloviddin Annaqulovga berdi.

O. Annaqulov:

Korrupsiyani vujudga keltiruvchi shart sharoitlar normativ-xuquqiy bazaning nuqsonlari korrupsiyani vujudga keltiruvchi eng muhim omillardan biri ekanligi haqida ta'kidladi.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashishning dolzarb masalalari haqida ya'ni Korrupsiya murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, unga qarshi kurashish uchun alohida choralar qo'llash samarali hisoblanmaydi. Ushbu faoliyat kompleks-majmuaviy tarzda amalga oshirilishi lozim.

Qarshi kurashish faoliyatining maqsadi va obyekti sifatida alohida olingan korrupsioner emas, balki ushbu hatti-harakatlarni amalga oshirishga sharoit yaratib beruvchi holatlarni bartaraf qilish va profilaktik-oldini olish choralari namoyon bo'ladi.

Shuningdek bugungi tadbirda bank xodimlari faoliyatlarida lavozim yo'riqnomalariga qat'iy rioya etish, bank mijozlari, tadbirkorlar va omonatchilarning xaq-xuquqlari poymol qilinishiga mutlaqo yo'l qo'ymaslik, mehnat intizomi, ichki ish-tartib qoidalari, "Odob-axloq qoidalari" normalariga qat'iy va og'ishmay rioya qilish, korrupsiyaviy holatlarning har qanday turiga yo'l qo'ymaslik, ta'magirlik va poraxo'rlikka qarshi keskin kurash olib borish, salbiy illatlarga batamom chek qo'yish lozim.

Ma'ruza yakunida ishtirokchilar tomonidan ularni qiziqtirgan savollar berildi. Tinglovchilar berilgan savollarga to'liq javob berilgach, AT "Aloqabank" Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari U. Qo'qonboyev bank tizimida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiya holatlarini oldini olish bo'yicha bankning barcha tarkibiy bo'linmalari uchun korrupsiyani oldini olish masalalariga bag'ishlangan maxsus seminarlarni va tegishli vazirlik hamda idoralar bilan doimiy ravishda davra suxbatlarini olib borish.

Shuningdek, xodimlarni yuksak huquqiy ongi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlar, va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga qat'iy rioya qilish ruhida tarbiyalash muxim vazifa.

Hukumatimizning korrupsiya deb atalmish illatni ildizi bilan yo'q qilishga qaratilgan sa'y-harakatlarining banklar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi sohani tubdan sog'lomlashtirishga yordam berishiga ishonamiz degan jumlar bilan yakunladi.

Yig'ilish raisi

U. Qo'qonboyev

Yig'ilish kotibi:

P. Umarov